

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	230
<b>N.V.Nosirov</b>	
Bo'lajak texnologik ta'lif o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lif muhitida takomillashtirish .....	234
<b>G.Z.Ganiyeva</b>	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida) .....	238
<b>Z.K.Abidova</b>	
Professional ta'lif muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatinitashkil etishda loyiha metodidan foydalanish.....	244
<b>R.I.Madaliyev</b>	
Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi .....	248
<b>M.X.Baybaeva, I.A.Imomov</b>	
Talabalarning xulq atvori dagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini.....	252
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	256
<b>L.M.Sokolova</b>	
Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda .....	261
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	268
<b>Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov</b>	
Yosh akrobatlarning xarakat-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish .....	272

#### IQTISODIYOT

<b>X.X.Bozarov</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari .....	277

#### FALSAFA

<b>Z.A.Boboyeva</b>	
San'atning badiiy adabiyot turi uzlusiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili.....	283
<b>I.A.Xo'jaxonov</b>	
Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni.....	288
<b>U.M.Mamajonov</b>	
Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari.....	293
<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif .....	298
<b>B.M.Qandov</b>	
Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar .....	302
<b>O.T.Berkinov</b>	
Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar .....	308
<b>I.Ismoilov</b>	
Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	311
<b>A.A.Sayitxonov</b>	
Milliy qadriyatlar- ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi.....	316
<b>Z.O.Muminova</b>	
Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri .....	320
<b>A.A.Isomiddinov</b>	
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari .....	324

MILLIY MADANIY MEROSIMIZNI O'RGANISHUDA TALABALAR INTELLEKTUAL  
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY JARAYONLARI

СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ  
СТУДЕНТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

SOCIAL PROCESSES OF STUDENTS' INTELLECTUAL CULTURE DEVELOPMENT IN  
THE STUDY OF OUR NATIONAL CULTURAL HERITAGE

Boyoq'sieva Rano Karimovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Boyoq'sieva Rano Karimovna

– Farg'onha politexnika instituti «Ijtimoiy fanlar va sport» kafedra assistenti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo'lajak mutaxassisni har tomonlama rivojlangan komil inson qilib tarbiyalash o'quv muassasasida zamonaviy ta'lif berishning asosiy maqsadi ekanligi, ta'lif tizimi ijtimoiy-iqtisodiy talablarga yo'naltirilgan va mal'um sohadan yaxshi xabardor bo'lgan, malaka, ko'nikma, mahoratga ega mutaxassisiga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojiga bog'liq bo'lishi, ular doimo o'z bilmalari, intellektual qobiliyatlari, madaniyatini to'ldirib va takomillashtirib borishi, talabalar intellektual madaniyatini shakllantirishga bo'lgan asosiy yondashuvlar tadqiq qilingan.

**Аннотация**

В статье рассматривается вопрос конечной цели современного обучения в образовательном учреждении - воспитания будущего специалиста как всесторонне развитой личности. Система образования зависит от социальных потребностей специалиста ориентированных на социально-экономические требования, который должен хорошо разбираться в конкретной области знаний, обладать навыками, интеллектуальными способностями, культурой, постоянно пополнять и совершенствовать свои знания. Рассмотрены основные подходы к формированию интеллектуальной культуры учащихся.

**Abstract**

In the article have been explored final targets of modern education, the issues of breeding professional as a fully developed person. The ultimate goal of modern teaching in an educational institution is depends of social needs of the specialist focused on socio-economic requirements. There are considered basic approaches to the formation of students' intellectual culture.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak mutaxassis, ta'lif, ta'lif tizimi, aksilogiya, intellekt, intellektual faoliyat, intellektual madaniyat.

**Ключевые слова:** будущий специалист, образование, система образования, аксиология, интеллект, интеллектуальная деятельность, интеллектуальная культура.

**Key words:** future specialist, education, education system, axiology, intelligence, intellectual activity, intellectual culture.

**KIRISH**

O'zbekiston xalqining boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi ya'ni shaxsnинг kamol topishi nazarga olingan, yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz.

**ILMIY MUAMMONING QISQACHA MAZMUNI**

Hozirgi zamon pedagogika fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ta'lif oluvchilarning intellektual madaniyatiga oid turli nazariy yondashuvlar, ilmiy konsepsiylar, yondashuvlar, bahs-

## PEDAGOGIKA

munozaralarni ilgari surmoqda. Chunonchi, globallashuv sharoitida inson intellektual madaniyatni muammolarining pedagogik jihatlarini tadqiq qilishda turli xil yondashuvlar o'tasida to'xtovsiz munozara, ilmiy bahs, tortishuvlar olib borilmoxda. Millat dunyoqarashini shakllantirish, ta'lif-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda ta'lif o'z samarasini bermoqda. Ta'larning kuchi va uning samaradorligi yuksak bilimga ega bo'lish bilan izohlanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yogga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi»[1, 76].

Aynan buyuk bobolarimizning ilm fan yo'lida bosib o'tgan mashaqqatli hayot yo'li biz uchun namuna bo'lmog'i lozim. Ilmiy faoliyatning madaniy jihatlarini bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirish esa mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi strategik vazifalardan hisoblanadi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, insonning yuksak intellektual madaniyati uning oldida turgan murakkab iqtisodiy, ijtimoiy muammolarning yechimini topishda va taraqqiyot davomida ma'naviy inqirozdan olib chiqishda, hatto ilohiy e'tiqodining mustahkam bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

### MAVZU BO'YICHA BOSHQA OLIMLAR ILMY ASARLARI QISQACHA TAHLILI

Intellektual madaniyatning mazmuni, tuzilishi, shakllanish mexanizmlarini to'liq anglamay turib, talabalar intellektual madaniyatining mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadqiqot mavzusini doirasidagi muammolarni o'rganishda intellektual madaniyatning mantiqiy-psixologik asoslari, strukturaviy elementlari, intellektual jarayonlarning boshqa shakllari bilan o'zaro aloqadorligi hamda uzlusiz ta'larning unga ta'siri bilan bog'liq masalalar jahon faylasuf olimlar tomonidan tizimli tahlil qilingan. Ushbu sohani o'rgangan olimlar qatoriga G'arberda G.Ayzenk, A.Bine, F.Galton, V.Shtern, L.Terstoun, Dj.Gilford, R.Sternberg, X.Gardner[2, 512] va MDH davlatlaridan O.D.Shipunova[3, 354], A.Zinovev[4, 11-13], D.V.Mitrofanov[5, 14-19], G.A.Voronov[6, 66-71] ni kiritish mumkin. O'zbekistonlik olimlardan O.Oqyulov[7, 1-4], M.Qalandarova[8, 15-17], V.I.Andriyanova[9, 138-143] kabi tadqiqotchilar intellektual madaniyat to'g'risida alohida tadqiqot olib bormagan bo'lsalar-da, lekin badiiy-falsafiy va huquqiy muammolariga bag'ishlangan izlanishlarda uning tarkibiga oid jihatlarni tilga oladilar. Intellektual madaniyatning uch elementi, ya'ni intellektual-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy jihatlarini tavsiflaydi.

- Birinchi elementga fan asoslarini egallash, shuningdek, shaxsda intellektual qobiliyat va malakalarni shakllantirishni kiritadi,

- Ikkinci jihat intellektual madaniyatning ijtimoiy-huquqiy omillari,  
- uchinchisi esa uzlusiz ta'lif ob'ekti va sub'ekti o'tasidagi dialektik aloqadorlikdan tashkil topuvchi intellektual faoliyatda milliy va umuminsoniy omillarning o'rnidir. Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirish muammosini o'rganishda aqliy rivojlanishning diagnostik metodlari yaratilishi yangicha ma'no kasb etdi. Sobiq ittifoq davrida chop qilingan ijtimoiy-psixologik mazmundagi adabiyotlarda ham talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishni o'rganishga muayyan ma'noda e'tibor bilan qaralgan. Tadqiqotchi A.G.Ananev va uning safdoshlari talabalar intellektual madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan ijodiy tafakkur, D.B.Bogoyavlenskaya intellektual faoliyot sohasida tadqiqotlar olib borgan, A.A.Brudniy esa intellektual madaniyatning sifatini jihatlari va funksiyalarini tahlil qilgan[10, 544]. Talabalar intellektual madaniyati taraqqiyoti insoniyat rivojlanishi, ijtimoiy (ilmiy-texnikaviy) ravnaq ta'sirida yuz beradi, konkretlashadi.

### MAQOLANING ILMY YANGILIGI

Intellektual madaniyat bo'lajak mutaxassisning rivojlanish darajasini ko'rsatadi va aniq tashkil etilgan bilimlilik simbiozini, mustaqil fikrlesh qobiliyatini, o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini ajratma olish layoqatini, shuningdek o'qish va yangi bilimlarni egallash istagi, ularni baholash va tartibga solish, har qanday vazifaga ijodiy yondashish va aniq yo'naltirilgan maqsadga muvofiq ravishda vaziyatga ko'ra harakat qilib, o'z rejasini amalga oshirishni ifodalaydi. Talabalar intellektual madaniyati ikkita, ya'ni aksiologik va faoliyatga oid asosni ajratishdan iborat. Mazkur maqolada talabalar intellektual madaniyatining asosiy, bir-biriga bog'liq tizimli tarkibiy qismlari ehtiyojga oid-asoslangan, kognitiv, tashkiliy-faoliyatga oid va ergonomik jihatlari tadqiq etilgan.

### TADQIQOTNING OBYEKTI

Oliy ta'lif tizimi talabalarida intellektual madaniyatni rivojlantirish jarayonining ijtimoiy pedagogik jihatlari belgilandi. Tadqiqotni olib borishda muammoga doir siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

## NATIJALAR VA AMALIY MISOLLAR

Bo'lajak mutaxassisning intellektual madaniyatini rivojlantirish ham ilmiy -nazariy, ham amaliy darajadagi muammo bo'lib, bu ishlab chiqarish va inson faoliyatining boshqa sohalarida puxta bilimli intellektul hodimlarga ehtiyoji balandligi bilan bog'liq. Zamonaliv jamiyat nostandard vaziyatlarda mustaqil va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda qaror qabul qilishga qodir, o'z malakasini doimiy o'stirishga ehtiyoj sezuvchi, ya'ni faol va tashabbuskor fuqarolarga, o'zini rivojlantirib borishga tayyor va o'rtacha imkoniyatlar chegaralarini doimiy bartaraf qilishga tayyor, yuksak intellektualijodiy salohiyatga ega bo'lgan bilimdon odamlarga muhtoj. Bu intellektni sifatiy rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat olib borishni talab qiladi, u intellektual madaniyat fenomenida namoyon bo'ladi. Oddiy bilimlar tizimini o'zlashtirishda insonda yuksak bilimlarni o'zlashtirishning predmetga xos mantiqiyligini gavdalantirib, mantiqan izchil tafakkur shakllanadi.

Talabaning intellektual madaniyati bo'lajak mutaxassisning rivojlanish darajasini ko'rsatadi va bilimlilikning aniq tashkillangan simbiozi, mustaqil fikrashi, o'z faoliyatining eng muhim yo'nalishini ajrata olishi, shuningdek o'qib-o'rganishi, yangi bilimlarni egallashga bo'lgan istagi, ularga baho berish va tartibga solishi, har qanday topshiriqqa ijodiy yondashishi, vaziyatga qarab oldiga qo'yan aniq maqsadlariga erishishidan iborat. Talabalarning intellektual madaniyatini tadqiq etishda «Talabalarda intellektual madaniyatni innovatsion usulda rivojlantirish texnologiyasi («Falsafa» (etika, estetika, mantiq) fani misolida)» deb nomlangan tadqiqot o'tkazildi. Biz talabalarning intellektual madaniyati mohiyati va tuzilishining tarkibiy qismalarini ishlab chiqishda shaxsga oid yondashish g'oyalari, insonning intellektual madaniyatini shaxsning mohiyatga oid kuchga erishishga yo'naltirilganlik sifatida va inson imkoniyatlarini yuzaga chiqarish konsepsiysi, qobiliyatlarni ijodiy tatbiq qilishga tayananamiz. Talabaning intellektual madaniyati tuzilishiga doir o'tkazilgan tahlil asosida biz quyidagi o'zaro bog'liqlik tarkibiy qismni ajratib ko'rsatdik: 1) ehtiyojga oid motivatsion tarkibiy qism talaba shaxsining biror maqsadga qaratilganligi, uning qiziqish va bilishga oid dominanti doirasi, turli darajadagi intensivlik va samaradorlikda intellektual istaklarini amalga oshirishga imkon beruvchi qadriyatlar tizimini belgilaydi; 2) kognitiv tarkibiy qism talabaning intellektual qobiliyati sifati va fikrash madaniyatining alohida tomonlarining shakllanganligini aniqlaydi: bilish jarayonining rivojlanganligi, tahlil (analiz) va sintez qilish, toifalash (kategorizatsiya), umumlashtirish va klassifikatsiyalash, ya'ni ma'lumotlar oqimida yo'nalishi va ularni qayta ishlashni o'ziga xos xususiyatlarini aniqlay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi; 3) tashkiliy-faoliyatga oid tarkibiy qism tadqiqotchilik va ijodiy faoliyatni tashkillash usullarini egallaganligini, natijalarini qayd qilish va rasmiylashtirishni bilishi, nutqining sifati va intellektual yutuqlar mohiyatini bayon qilish qobiliyati, o'z nuqtai nazarini asoslay olishi, o'zini nazorat qilish va intellektual faoliyatini o'zi baholay olish ko'nikmalarining egallaganligi, mustaqil o'qib bilim orttirishga tayyorligini belgilaydi; 4) ergonomik tarkibiy qism intellektual faoliyatni oqilona tashkil qilishdagi, o'z kuchlarini to'g'ri taqsimlash va qattiq charchashning oldini olishdagi, intellektual mehnatni tashkil qilishga ergonomik talablarni qo'yishdagi, aqliy faoliyatning estetik tomonida aks etishi mumkin bo'lgan natijalarga kam sarf qilib katta natijalarga erishishdagi bilim va malakalarining mavjudligini belgilaydi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Talabaning intellektual madaniyatini shakllantirish oliy ta'lim muassasasida puxta o'ylangan va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkillashni talab qiladi, bunda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi mutaxassislar intellektual madaniyatini yuqori darajada rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi: 1. Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirish quyidagi uchta tarkibiy qismidan iborat: intellektual, hissiy ixtiyoriy hamda amaliy harakatli faoliyat tajribasi. Mazkur tarkibiy qismlardan intellektual va hissiy-emotsional komponent muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'limning axborotlashuvi sharoitida virtual dunyoqarash va virtual reallikni hisobga olishni talab etadi. 2. Virtual dunyoqarash murakkab ijtimoiy fenomen sifatida istiqbolli rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning internet tarmog'i orqali, interfaol dasturiy vositalar asosida ilmiy axborotlar bilan muntazam tanishib borishi ularning virtual dunyoqarash malakasini egallashini taqozo etadi. Virtual reallik hodisasi fan va texnikaning rivojlanishi bilan uzyiy bog'liq bo'lib, ijtimoiy-tabiiy tizimlarning barqaror rivojlanishi, bugungi kunda va kelajakda hayot sifatini yaxshilash jarayoni sifatida talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. 3. Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni o'zining muayyan bosqichlariga ega bo'lib, bu bosqichlarda egallangan amaliy tajribalar, nazariy bilimlar va mantiqiy fikrash darajalariga tayangan holda ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik tizim taqdim qilinadi.

PEDAGOGIKA

Talabalarda shakllangan intellektual madaniyatning har bir muayyan darajasi o'zining aniq belgilariga ega bo'lib, ular ta'lif oluvchilar ilmiy dunyoqarashining muntazam tarzda bir bosqichdan ikkinchisiga o'tib uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. 4. Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy nuqtai nazari muhim o'rinn tutib, malaka oshirish kurslari o'quv rejasiga «Intellektual madaniyat va ilmiy-ijodiy mas'uliyat» o'quv modulini kiritish maqsadga muvofiq.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-том. - Т.: «Ўзбекистон», 2019. –76-б.
2. Гарднер Х. Структура разума: теория множественного интеллекта. - М.: «Бизнес книга», 2007. -С. 512.
3. Шипунова О.Д. Интеллект и субъективность (социально-философский анализ): Дис. ... д-ра филос. наук. - Санкт-Петербург, 2004. -С. 354.
4. Зиновьев А. Высшее образование и логика интеллекта. // Alma mater, 2004, № 5. -С. 11-13.
5. Митрофанов Д.В. Особенности интеллектуальной культуры студентов. // Вестник Тамбовского университета. Серия Гуманитарные науки. Тамбов, 2016. Вып. 10 (162). -С. 14-19
6. Воронцов Г.А. Культура интеллектуального труда как составляющая современного образования. // Ректор Вуза, 2011, №1. –С. 66–71.
7. Оқюлов О. Интеллектуал салоҳиятни сақлаб қолишга қаратилган чоралар. / Ҳукуқ: Ички ишлар вазирлиги «Академия» илмий-назарий юридик журнал. - Т.: «Шарқ», 2005, № 1. -С.1-4.
8. Қаландарова М. Таълим жараённда ўқувчиларни ақлий-интеллектуал ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари / «Uzluksiz ta'lif» ilmiy-uslubiy jurnal. - Т.: «Шарқ», 2010. № 1. -С.15-17
9. Андриянова В.И. Интеллектуальное воспитание и обучение учащихся. / «Халқ таълими» илмий-методик журнал. -Т., 2005, 1-сон. - С. 138-143.
10. Старовойтенко Е.Б. Современная психология: формы интеллектуальной жизни. Учебное пособие для ВУЗов. – М.: Академический проект БЦ, 2001. – С. 544.